

**MA'LUMOTLAR BAZALARI VA OCHIQ MA'LUMOTLAR:  
FOYDALANISH VA HIMOYA O'RTASIDAGI MUVOZANAT**

**Akbarov Afzalbek**

Toshkent Davlat yuridik universiteti,  
Xususiy huquq fakultet 1-bosqich V-patok 3-guruh talabasi  
Email: afzalbekakbarov2407@ gmail.com

**Annotatsiya:** Hozir ko'p tashkilotlar, davlat idoralari va kompaniyalar o'zlarida bor ma'lumotlarni masalan, aholi ro'yxati, sog'liqni saqlash, transport, ta'lim statistikasini ommaga ochiq qilib qo'ymoqda. Bu ochiq ma'lumotlar open data deb ataladi. Bunday ochiq ma'lumotlarni iloji boricha ko'proq odam foydalanadi, yangi g'oyalar, dasturlash xizmatlaridan foydalanadi va natijada jamiyat rivojlanadi. Himoya maxfiylik va xavsizlikka keladigan bo'lsak, hech kimning hayotiga putur yetkazmaslik ma'lumotlarni o'g'irlamaslik, no'tog'ri qo'lga tushmaslik, odamlarni diskriminatsiyaga uchramaslikni aytishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Ma'lumotlar bazalari, ochiq ma'lumotlar, raqamli transformatsiya, ochiq datasetlar.

**KIRISH**

Raqamli transformatsiya jarayoni bugungi dunyoning barcha sohalarini tubdan o'zgartiradi<sup>1</sup>. XXI asrda ma'lumotlar eng qimmat resursga aylanadi<sup>2</sup>. SHuning uchun ma'lumotlar bazalari, ma'lumot almashinuvi, ochiq ma'lumotlar platformalari va ma'lumot xavfsizligi davlatlar, biznes sektor va fuqorolar hayotida strategik ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Ma'lumotlar bazalari bu ma'lumotlarni tartibli, tizimli, izchil va xavsiz shakilda saqlash va qayta ishlash imkonini beruvchi elektron tizimlardir.

<sup>1</sup> <https://www.kpi.com/uz/raqamli-transformatsiya-biznesingiz-uchun-asosiy-strategiyalar/>

<sup>2</sup> <https://ru.scribd.com/>

Bugungi kunda ma'lumotlar bazalarining asosiy maqsadlari quydagilardan iborat:

- Davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish;<sup>3</sup>
- Fuqorolarga qulaylik yaratish;
- Iqtisodiy faoliyatni optimallashtirish;
- Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish;
- Ilmiy tadqiqotlar uchun ma'lumot manbai funksiyasini bajarish.

Shu bilan birga, ochiq ma'lumotlardan foydalanish so'ngi yillarda global tendensiyaga aylanadi. Ochiq ma'lumotlar deganda davlat sektoridagi statistik, iqtisodiy, ijtimoiy yoki boshqaruvga oid ma'lumotlarning omma uchun bepul, ochiq, qayta ishlanishi mumkin bo'lgan shakilda taqdim etilishi tushuniladi. Ochiq ma'lumotlar shaffoflikni oshiradi, davlat va fuqorolar o'rtasidagi ishonchni kuchaytiradi, ilmiy izlanishlar va startaplar uchun imkoniyatlar yaratadi. Biroq ma'lumotlarning ochiqligi bilan ma'lumotlarning xavsizligi bir-biriga zid tushunchalar bo'lib ko'rinishi mumkin. Shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi-inson huquqlarining ajralmas qismi. Agar ma'lumotlar nazoratisiz ochilsa, bu fuqorolarning shaxsiy hayotiga xavf tug'diradi. Masalan identifikatsiya ma'lumotlarning tarqalishi firibgarlik, shaxs o'g'riligi, moliyaviy yo'qotishlar va ijtimoiy manipulyatsalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli ochiq ma'lumotlardan foydalanish va ularni himoya qilish o'rtasidagi muvozanat masalasi global miqyosda dolzarb muammo hisoblanadi. Raqamli davlat yaratish jarayonida ma'lumotlarni ochish siyosati va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish siyosati birgalikda uyg'unlashgan bo'lishi kerak.

<sup>3</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5971599?ONDATE=21.04.2022>  
SJIF: 5.051

**Metodlar:** Ma'lumotlar bazalari, ochiq ma'lumotlar, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, raqamli xavsizlik, kiber hujimlar, ma'lumotlarni tasniflash, davlat ma'lumotlar siyosati kabi tushunchalar bo'yicha ilmiy adabiyotlar, maqolalar va xalqaro tadqiqotlar o'rganiladi. O'zbekiston Respublikasing "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni, davlat ma'lumotlar bazalari haqida hukumat qarorlari, ochiq ma'lumotlar portal faoliyati tahlil qilinadi. <sup>4</sup>Misol qilib Sog'liqni saqlash, ta'lim, iqtisodiyot, soliq tizimi, sud-huquq tizimi va transport tizimidagi ma'lumotlar bazalari amaliy faoliyati o'rganiladi. Ochiq ma'lumotlardan foydalanuvchi startaplar faoliyati tahlil qilindi.<sup>5</sup>Olingan barcha. ma'lumotlar umumlashtirilib, ma'lumotlardan samarali foydalanish va ularni himoya qilish o'rtasidagi ideal muvozanat modeli ishlab chiqiladi.

**Muhokama:** Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ochiq ma'lumotlar siyosati va ma'lumotlar bazalaridan foydalanish jarayoni samaradorlikni oshirsada, shaxsiy ma'lumotlar xafsizligi bilan bog'liq risklar ham ortib bormoqda. Muhokama va himoya o'rtasida optimal muvozanatni topishning amaliy, texnik va huquqiy jihatlari batafsil tahlil qilindi. Avvalo ochiq malumotlarning ijtimoiy ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi. Davlat organlari ma'lumotlarning ochiqligi— davlat boshqaruvida shaffoflikni kuchaytiradi, <sup>6</sup>korruptsiyaga qarshi kurashni samarali qiladi, innovatsion startaplar va biznes jarayonlari uchun zarur bo'lgan ma'lumot manbaini yaratadi. Bu esa iqtisodiy o'sishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, transport, ekologiya, iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki ta'limga oid ochiq datasetlar asosida yuzlab yangi raqamli xizmatlar yaratilmoqda. Shunga qaramay, ma'lumotlarning hadan tashqari ochilishi shaxsiy hayot daxilsizligi

<sup>4</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-5239421>

<sup>5</sup> <https://innovation.gov.uz/info/startaplar>

<sup>6</sup> [O'ROQ-369-сон 05.05.2014. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida](#)

SJIF: 5.051

tamoyiliga zid bo'lishi mumkin. Mazkur konflikt ma'lumotlarini boshqarish siyosatida ehtiyotkorlik bilan muvozanatni topishni talab qildi. Tadqiqot davomida aniqlangan eng muhim muamolardan biri-identifikatsiya xavfi. Ochiq datasetlar ko'pincha anonimlashtirilgan bo'lsada bir necha ma'lumotlar to'plamining kesishishi orqali insonni qayta aniqlash imkoniyati mavjud. Masalan, yashash joyi, yoshi, jinsi, kasbi kabi atributlar bo'lgan datasetlar boshqa ochiq tizimlar bilan solishtirilganda shaxsni aniqlab olish ehtimoli keskin oshadi. Shuning uchun oddiy anonimlashtirish usullari yetarli emasligi, chuqurroq maxfiylik metodlaridan foydalanish zararlari aniqlandi. Ikkinchi muhim jihat—normativ-huquqiy bo'shliqlar mavjudligi. O'zbekiston va ko'plab davlatlarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonunchilik<sup>7</sup> mavjud bo'lsa-da, ochiq ma'lumotlar siyosatini belgilovchi huquqiy mexanizmlar ba'zan umumiy va amaliy ko'rsatmalardan yiroq. Masalan, qaysi ma'lumot ochiq bo'lishi, qaysi biri yopiq bo'lishi, ochilish darajasini belgilovchi mezonlar, ma'lumot egasi roziligi, davlat organlarining javobgarligi bo'yicha aniq standartlar yetarli darajada shakillangan. Bu esa amalyotda noaniqliklar, ma'lumotlar bilan ishlaydigan tashkilotlar o'rtasida turlicha yondashuvlar paydo bo'lishiga olib keladi. Uchinchi tahlil qilingan nuqta—foydalanuvchi xabardorligi va raqamli savotxonlikning pasligi. Ko'pincha fuqorolar o'z ma'lumotlari qaysi tizimlarda qay tarzda saqlanishi yoki qay birlari ochiq platformalarga tushishi mumkinligi haqida yetarli tasavvurga ega emas.

Bu esa davlat axborot tizimlariga ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek ma'lumotlar bilan ishlovchi xodimlarning texnik savotxonligi yetarli bo'lmagan, eng zamonaviy himoya tizimlari ham samarali ishlamay qolishi ehtimoli yuqori. Bundan tashqari, infotexnologik xafar ham tahlil qilindi. Ochiq

<sup>7</sup> [O'RQ-547-coH 02.07.2019. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida](#)  
SJIF: 5.051

ma'lumotlar platformalarining zaifligi, API orqali noto'g'ri chaqiruvlar, himoyasiz serverlar, bulutli tizimlarning xavfsizlik darajasi-bularning barchasi shaxsiy ma'lumotlarning sizib chiqishiga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda dunyo bo'ylab yuzlab davlat ma'lumotlar bazalarida sodir bo'layotgan "data breach" hodisalari bunga yorqin misoldir. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun bir nechta yechimlar muhokama qilindi. Avvalo, ma'lumotlarni ochishda bosqichli yondashuv "minimal ochiqlik" tamoyili; ya'ni foydalanuvchi ehtiyojidan kelib chiqan holda faqat zarur bo'lgan atributlar ochilishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, differensial maxfiylik- anonimlik, data-masking, ma'lumotlarni de-identifikatsiya qilishning murakkab modellari kabi texnik usullar qo'llanilishi zarur. Yana bir yechim davlat organlarida ma'lumotlarni boshqarish bo'yicha yagona standartlar va "axborot etikasi" qoydalarini joriy etishdir. Bu nafaqat xavfsizlikni, balkim tizimlar o'rtasida moslikni ham oshiradi. Shuningdek, davlat organlari, universitetlar va IT sohasi vakilari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, fuqorolarning raqamli savodxonligini oshirish, ochiq ma'lumotlar platformalarida xavfsizlik bo'yicha muntazam auditlar o'tkazish talab etiladi.

Umuman olganda, mazkur muhokama shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlardan samarali foydalanish va ularni himoya qilish o'rtasidagi muvozanat-bu doimiy ravishda takaomilashtirishni talab qiladigan dinamik jarayon. Bunda huquqiy me'yorlar, texnik himoya, axloqiy tamoyillar va foydalanuvchi xabardorligi birgalikda ishlashi lozim. Faqat shundagina ochiq ma'lumotlar jamiyat manfaatiga xizmat qilishi bilan birga, fuqorolarning shaxsiy hayoti ham ishonchli tarzda himoyalangan bo'ladi. Ushbu tatqiqot ma'lumotlar bazalaridan foydalanish samaradorligi va ochiq ma'lumotlar siyosatining afzalliklari bilan bir qatorda, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq murakkab masalalarni chuqur

tahlil qilish imkonini berdi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki ochiqlik va mahfiylik o'rtasidagi muvozanatni topish-nafaqat texnik, balki huquqiy, tashkiliy, axloqiy va ijtimoiy yondashuvni talab qladigan kompleks jarayon hisoblanadi.

Birinch navbatda, ochiq ma'lumotlarning ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ko'plab davlatlar, jumladan O'zbekiston ham, "Ochiq ma'lumotlar portal" <sup>8</sup> orqali statistic ma'lumotlar, transport, ekologiya, ta'lim va sog'liqni shaqlashga oid datasetlarni tahliliy platformalar, iqtisodiy modellar va raqamli xizmatlar yaratilmoqda. Xususan, ochiq ma'lumotlardan foydalanish orqali davlat xaritlari monitoring, korruptsiya xavfi darajasini aniqlash, shahar infuratuzulmasini rejalashtirish kabi bir qator muhim vazifalar bajarilmoqda. Biroq, ma'lumotlarning hadan tashqari ochiqligi yoki noto'g'ri integratsiyasini shaxsiy hayot daxilsizligiga xavf tug'dirishi mumkinligi aniqlangan. Muhokama jarayonidagi eng muhim masalalardan biri—ma'lumotlarning qayta identifikatsiya qilinishi xavfidir. Ko'p hollarda ma'lumotlar anonimlashtirilgan bo'lsa-da, bir nechta datasetlar bir biri bilan solishtirilganda yoki qo'shilganda shaxsni aniqlash imkoni paydo bo'ladi. Bu ayniqsa sog'liqni saqlash, ta'lim va soliq tizimlariga oid datasetlarda kuzatiladi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, mashinaviy o'qitish algaritimlari bu identifikatsiya jarayonini yanada osonlashtirmoqda. SHuning uchun oddiy "ismni o'chirish" yoki "jins/ yoshini yashirish" uslubi yetarli emas.

**Xulosa:** Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlar bazalaridan foydalanish va ochiq ma'lumotlarni rivojlantirish jarayonida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qlish eng ustuvor masala hisoblanadi. Raqamli davlatning muvaffaqiyati ma'lumotlar siyosati to'g'ri tashkil etilganiga bevosita bog'liq.

<sup>8</sup> <https://data.egov.uz/rus>  
SJIF: 5.051



Shu yo'l bilan davlatning ochiqligini, fuqarolarning ishonchi, iqtisodiy o'sish va raqamli xavfsizlik o'rtasida haqiqiy muvozanatga erishish mumkin. Zamonaviy raqamli jamiyatda ma'lumotlar bazalari va ochiq ma'lumotlarning ahamiyati beqiyos darajada ortib bormoqda. Davlat boshqaruvidan tortib, biznes jarayonlari, ilmiy izlanishlar, tibbiyot, ta'lim va ijtimoiy xizmatlarga deyarli barcha sohalar ishonchli va sifatli ma'lumotlarga tayanmoqda. Shu bilan birga, ma'lumotlar ustidan nazoratning kuchayishi, ularning ochiqligi oshishi va avtomatlashtirilgan qayta ishlash texnologiyalarning rivojlanishi shaxsiy hayot daxlsizligiga doir savollarni ilgari surmoqda. Ushbu tadqiqot davomida ochiq ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlari hamda ma'lumotlar bazalarida himoya masalalarining o'zaro muvozanati har tomonlama o'rganiladi. Barcha dalillar shuni ko'rsatadiki, raqamli jarayonlarining tezlashuvi yangi yondashuvlarni talab qiladi. Avvalo, ochiq ma'lumotlarning iqtisodiy va ijtimoiy foydasi juda katta ekanligi yaqqol ko'rinadi. Ular ilmiy tadqiqotlarni jadallashtiradi, innovatsion startaplar uchun imkoniyat yaratadi, davlat organlarining shaffofligini oshiradi, korupsiyaga qarshi kurashda samaradorlik beradi, jamiyatda tanqidiy fikirlashni kuchaytiradi. Ochiq ma'lumotlar orqali bizneslar yangi bozor yechimlarini topadi, tadbirkorlik faoliyati kengayadi, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar sifati ortadi. Ayniqsa, O'zbekiston kabi raqamli transformatsiya jarayonini faol bosqichga kirgan davlatlar uchun open data iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida ko'rilmogda. Biroq bularning barchasi ma'lumotlarning xavfsizligi talablariga qat'iy amal qilinmagan taqdirda jiddiy xavflarni yuzaga keltirishi mumkin. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki ma'lumotlardan foydalanish va ular himoya qlish o'rtasidagi muvozanatning buzulishi turli salbiy oqibatlarga olib keladi; shaxsiy hayot daxilsizligining buzilishi, ma'lumotlar noto'g'ri qo'lanilishi, kiberjinoyatchilik holatlarining

ko'payishi, davlatga bo'lgan ishonchning pasayishi. Ayniqsa sun'iy intellek, big data va avtomatlashtirilgan irodasiz qayta ishlab chiqarilishi, birlashtirilishi yoki tahlil qilinishi mumkin. Shu sababli har qanday ochiq ma'lumotlar siyosati kuchli huquqiy baza, texnik himoya choralari, xavf baholash tizimlari va mas'uliyatli ma'lumotlar boshqaruvi tamoyillariga asoslanishi lozim. Xalqaro tajriba jumladan, GDPR, OECD, tamoyilari, Amerika va Yevropa davlatlarning ochiq ma'lumotlar siyosatlari shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlar bilan ishlashda asosiy tamoyilar quydagilardan iborat: ma'lumotlarni minimal yig'ish maqsadga muvofiqlik, shaffoflik, rozilikka tayanish foydalanuvchi huquqlarini taminlash ma'lumotlarni anonimlashtirish, xavfsizlik choralari muntazam yangilab borish. O'zbekistonning "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni, "Ochiq ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni va tegishli hukumat qarorlari ham shu yo'nalishda ishlab chiqilgan bo'lib so'nggi yillarda mazkur sohada ijobiy islohatlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ma'lumotlar bazalari va ochiq ma'lumotlardan foydalanish jarayonida muvozanatni saqlash nafaqt texnik yoki huquqiy masala, balki strategic davlat siyosati hisoblanadi. Bu jarayonda davlat organlari tijorat tashkilotlari ilmiy muassasalar, IT mutahassislari va jamiyatning o'zi hamkorlikda ishlashi zarur.

### ***Foydalanga adabiyotlar ro'yhati***

1. Shaxsga doir malumotlar to'g'risidagi qonun. [O'RQ-547-coh 02.07.2019. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida](#)
2. Davlat xizmat samaradorligini oshirish. <sup>1</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5971599?ONDATE=21.04.2022>.
3. XXI asr malumotlari va resurslari. <https://ru.scribd.com/>.



- 
4. O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portal. <https://data.egov.uz/rus>.
  5. Ochiq ma'lumotlar datalari. <sup>1</sup><https://innovation.gov.uz/info/startaplar>.
  6. Davlat ma'lumotlarining ochiqligi. <sup>1</sup> [O'RQ-369-son 05.05.2014. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida](#)
  7. O'zbekiston va ko'plab shaxsiy ma'lumotlari qonunchiligi, <sup>1</sup> [O'RQ-547-son 02.07.2019. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida](#).
  8. Davlat organlari va davlat ma'lumotlarini shaffofligi oshirish va kuchaytirish. [O'RQ-369-son 05.05.2014. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida](#).
-